

**TILNI SAMARALI O'QITISH TAMOYILLARI**

*Aripova Aziza Xasanovna, JIDU "O'zbek va rus tillari" kafedrasi  
dotsenti, f.f.n., (PhD)*

*Raximova Nargiza Xamidullayevna, JIDU "O'zbek va rus tillari"  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

**PRINCIPLES OF EFFECTIVE LANGUAGE  
TEACHING**

*Aripova Aziza Khasanovna, Associate Professor of the Department  
of Uzbek and Russian Languages of UWED, (PhD)*

*Rakhimova Nargiza Khamidullayevna, Senior teacher of the  
Department of Uzbek and Russian languages of UWED*



[https://orcid.org/0000-  
0002-5921-6741](https://orcid.org/0000-0002-5921-6741)  
e-mail:  
[mumtozim@mail.ru](mailto:mumtozim@mail.ru)

**ПРИНЦИПЫ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ  
ЯЗЫКУ**

*Арипова Азиза Хасановна, доцент кафедры узбекского и  
русского языков Университета мировой экономики и  
дипломатии, (PhD)*



*Рахимова Наргиза Хамидуллаевна, старший преподаватель  
кафедры узбекского и русского языков Университета  
мировой экономики и дипломатии*

**Annotatsiya:** Til ta'limalda muloqotining muhim vazifasi – samaraga erishish va til o'r ganuvchining kommunikativ imkoniyatlari kengayishiga ko'maklashish, tilni ijtimoiy kompetensiyalar sifatida o'qitish, xorijiy tillarni o'r ganishlarida qulaylik yaratish, til doirasidagi bilimni egallash asosida o'quv jarayonida natijaga erishish hisoblanadi. Maqolada bugungi kun yoshlarining o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olishlarida til bilishning muhimligi va til ta'limidagi zamonaviy yondashuvlar ochib berilgan.

**Kalit so'zlari:** til muloqoti, metodik kompetensiyalar, sohaviy kompetensiyalar, yuksak samara.

**Abstract:** An important task of communication in language education is to achieve efficiency and help the language learner expand his communicative abilities, teach language as a social competence, create convenience in learning foreign languages, achieve results in the educational process based on mastering language-related knowledge. The article reveals the importance of language knowledge by modern youth, their ability to protect their rights and interests, through the ability and mastery of modern approaches in language education.

**Keywords:** language communication, methodical competences, sectoral competences, high efficiency.

**Аннотация:** важной задачей общения в языковом образовании является достижение эффективности, и помочь изучающему язык, в расширении его коммуникативных способностей, обучение языку как социальной компетенции, создание удобства в изучении иностранных языков,

*достижение результатов в образовательном процессе на основе овладения знаний касающихся языка. В статье раскрывается значение знания языка современной молодежью, их способности защищать свои права и интересы, путем умения и овладения современных подходов в языковом образовании.*

**Ключевые слова:** языковое общение, методические компетенции, отраслевые компетенции, высокая эффективность.

**KIRISH.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Bosh Assambleyasiga 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, - deb ta’kidlagan edilar.

Bugungi kun yoshlari o‘z huquq va manfaatlarni himoya qila oladigan, yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanib, mustahkam huquqiy fikrga ega, zamon talablariga hamohang ravishda rivojlanayotgan jamiyat vakillaridirlar.

Istalgan davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishida o‘sha davlatdagi yoshlarning ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bevosita va bilvosita bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifida, yoshlarning bilimlari hamda salohiyatlari mamlakat ravnaqining muhim omili sifatida asoslanib berildi.

Tilni samarali o‘qitishga intilish doimiy dolzarb muammolardan. Tilshunos-olim A.Rustamovning fikricha, “...tilning birligi, ma’rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon yaratadi”. Til – inson faoliyatida til olamini tushunish va mushohada almashinuv omili vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda o‘zbek va rus tillarini xorijliklar tomonidan va yoshlarimizning shu zaylda biororta xorijiy tilni mukammal va katta qiziqish bilan o‘rganishiga asosiy sabab – jamiyatning til taraq-

qiyotiga ongli ta’siri hamda ikki tomonlama hamkorlarlikning amaliy yuritilishi, boshqacha aytganda, til muloqotining muhim vazifasini o‘tayotganligidadir. Xorijda ham bu borada muntazam izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda tilni ijtimoiy kompetensiyalar – o‘zaro muloqot, jamoa va guruhda ishslash, metodik kompetensiyalar – ilmiy ish olib borish, sohaviy kompetensiyalar – til doirasidagi bilimni egallash asosida o‘rgatish o‘quv jarayonida yuksak samaraga erishishga olib kelmoqda.

O‘zbek va rus tilini xorijiy til sifatida o‘rgatish, yoki mamlakatimiz talabalarining xorijiy tillarni o‘rganishlari, eng avvalo, tilga nisbatan konseptual yondashuvni, til ta’limiga xos metodlarga nisbatan kommunikativ munosabatni, o‘zbek tilini nafaqat davlat tili sifatida, balki millatlararo muloqot tili, til vaziyati, nutq vaziyati, qurilishi kabi tushunchalarini til o‘rganuvchilar tomonidan egallanishini ham taqozo etadi. Chunki millatlararo muomala tili sifatida o‘rgatilsa, uning ijtimoiy jihatiga ham e’tibor berilib, til qo’llanishining ijtimoiy shart-sharoitlari, qo’llanish sohalari, madaniy-tarixiy, etnosiyosiy amal qilinishi ta’milanadi. Til o‘rgatishda innovatsion yondashuv – kommunikativ kompetentlikni rivojlantirib, til o‘rganuvchilarda, shu tilni amalda yuritadigan jamiyatga nisbatan, tolerantlik va madaniy munosabat shakllanishini taqozo etadi.

**MUHOKAMA.** Tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishning eng samarali metod va usullari individual yondashuv asosida tanlanadi. Chunki, tilni egallash har kimda har xil kechadi – ba’zilar uchun qabul qilish oson kechsa, ba’zilarga murakkablik qilishi mumkin. Ta’limning har qanday holatida o‘qituvchi tomonidan barcha uchun qabul qilinishi optimal ravishda samarali kechadigan foydali metod tanlanadi. Mashg‘ulot olib boruvchi darsni jonlantirib, til o‘rganishga nisbatan qiziqishni uyg‘ota olishi kerak. Tilshunos B.V.Belyayev fikricha, “metodni samarali qo’llay olish o‘qituvchi

mahoratiga bevosita bog‘liq”. Samarali metodlardan biri – *til muomala madaniyati sifatida*, ya’ni mahalliy madaniyat talqini, urf-odatlarini o‘rgatish uyg‘unligida olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki xorijliklar uchun, nafaqat til qurilishi, avvalo boshqa xalq va u bilan bog‘liq madaniyat ham ko‘z o‘ngida turadi, shu sababdan, ***madaniyatlararo muloqot yondashuvi*** asosida til o‘rgatilsa yaxshi natijaga erishish mumkin.

**NATIJALAR.** Tilni intensiv o‘rgatish dasturida tilning grammatik, fonetik va leksik tarkibi bilan bog‘liq ham nazariy ham amaliy (matn, dialoglar bilan ishslash) jihatlari mujassamlangan. Til o‘rgatishda funksional-uslubiy yondashuvga ham e’tibor qaratilishi lozim. Zero, har bir til nafaqat adabiy til sifatida, balki mahalliy dialektlar asosida ham faoliyat yuritishi o‘qituvchiga ma’lum hodisadir. Shu sabab ham, xorijlikka kundalik muomalada qo‘llanadigan ilk leksik materialni berish jarayonida, uni mahalliy dialektlarda keladigan ekvivalenti ham tushuntirilib borilishi kerak. Til o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi dialog ishtirokchilariga mahalliy madaniyat bilan bog‘liq o‘ziga xos tomonlarini o‘rgatib borishi muhim. Masalan, turli yoshdagi va tengdosh kishilarga nisbatan doimiy hurmat shakli sifatida “siz” deb murojaat qilinishini, buyruq-istik maylining II shaxs shakli muloqotda qo‘llanishi va madaniy muloqotning nozik jihatlarini tushuntirib borilishini taqozo etadi. Shu sababdan ham til o‘rgatishda shaxslararo muomala madaniyati asosidagi yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Til ta’limida madaniy urf-odat va an’analalar haqida ham ma’lumot berilishi hamda mashg‘ulot davomida birorta udum bilan bog‘liq holat namoyish etilishi til o‘rganuvchida til orqali mahalliy aholiga nisbatan qiziqish uyg‘otib, uni tez fursatda o‘rganib, muomalaga kirishish istagini tug‘dirishi tabiiy.

Til ta’limi jarayonida quyidagi metodik prinsiplar qo‘llanilishi yaxshi samara beradi:

- Og‘zaki nutqni tinglab borish va qo‘llanadigan kinestetik usullarni tahlil qilish (mahalliy dialektda ishlataladigan sheva so‘zlarini va xatti-harakatlarni tushunishga yordam beradi);

- Mashg‘ulot davomida til o‘rganuvchining “ona tili”dan foydalanish (gapirish va tarjima)ni

maksimal ravishda cheklash (talaffuz yaxshilanishiga olib keladi, chunki so‘zning orfoepik jihatiga tez ko‘nikadi);

- “M. Berlis metodi”ni qo‘llash, bunga ko‘ra so‘zlar xatti-harakat yoki predmetni ko‘rish orqali immanent qabul qilish orqali o‘rganiladi (so‘zlarining grammatik qurilishi intuitiv ravishda o‘zlashtirilib, so‘zni vizual-tasviriy qabul qilish orqali yodlashga erishiladi);

- So‘z bilan bog‘liq xatti-harakat taqlid yoki analog tovushlar talaffuzi va harakatlar yordamida o‘zlashtiriladi (asosiy muloqot shakli – dialog, barcha material tinglanadi, talaffuz etiladi, o‘qiladi, zarur holatda vizual ko‘riladi – rasm, predmet, harakat);

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, til ta’limida, xususan istalgan tilni xorijiy til sifatida o‘rgatish jarayonida, innovativ ravishda egallanib bo‘lingan, kompetensiyalarga urg‘u berilishi asosidagi sotsiolingvistik va lingvometodik omillardan foydalanish – kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga qaratiladi. Til o‘rganishga yo‘naltilgan yondashuvlar asosida mahalliy tilni o‘rganuvchi xorijlik o‘zining bilim darajasini mustaqil ravishda oshirib borishga qaratilgan motivatsiyani keltirib chiqaradi hamda kelgusidagi amaliy faoliyati davomida, til qirralarini mukammal o‘rganishga qaratilgan qiziqishi yanada ortadi. Til ta’limi jarayonida qo‘llanilgan konseptual yondashuv metodlari til o‘rgatish bilan bog‘liq innovatsion ilmiy-tadqiqot uslublarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. The ideal appearance of a modern teacher // AK Aripova, KS Khodjayeva. - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary, 2020.
2. Methods, aspects and components of teaching the Uzbek (Russian) language as a foreign language on the experience of foreign students A Aripova, K Khodjayeva, N Yuldasheva - Journal of Critical Reviews, 2020.
3. Межкультурная коммуникация-как необходимый процесс глобализации // 2019.
4. Культура речи юриста: общая характеристика //2024.
5. Роль Технологических разработок в обучении языка // 2023.